

**"FARMATSEVTIKA SOHASINING BUGUNGI HOLATI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR" MAVZUSIDA XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN**



**HURMATLI HAMKASBLAR!**

Toshkent farmatsevtika instituti sizlarni 2021 yilning 18-19 noyabr kunlari Toshkent shahrida **"Farmatsevtika sohasining bugungi holati: muammolar va istiqbollar"** mavzusida bo'lib o'tadigan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanga taklif etamiz!  
(Toshkent sh. Oybek 45)

**TASHKILOTCHILAR**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent farmatsevtika instituti.

**Anjuman ishtirokchilari:** O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarning pedagog-o'qituvchilari, olimlar, ilmiy tadqiqotchilari, magistr talabalar va sohadagi boshqa shaxslar ishtirok etishlari mumkin.

**Anjumanning maqsadi:** Innovatsion, raqobatbardosh dori-darmonlarni yaratish istiqbollarini, farmatsevtika fanlari va texnologiyalarining asosiy muammolari, yechimlari va yutuqlarini muhokama qilish, fikr almashish.

**ANJUMAN YO'NALISHLARI:**

- farmatsevtik ta'lim sohasidagi islohot, yutuqlar, muammolar, kelajak rejalari;
- sanoat farmatsiyasidagi dolzarb muammolar;
- farmatsiyada marketing va menejment, milliy dori siyosatining ustuvor yo'nalishlari;
- dori vositalari sifatini nazorat qilish, standartlash va sertifikatlash;
- yangi dori vositalarini yaratish;
- farmakologiya va klinik farmatsiya;
- sud va klinik toksikologiya.

**ANJUMAN FORMATI:**

- Plenar ma'ruzalar
- Seksion ma'ruzalar
- Devoriy ma'ruzalar
- Yosh olimlar tanlovi (30 yoshgacha)
- Innovatsion yarmarka

**KONFERENSIYA TILLARI:** ingliz (ustuvorlik beriladi), o‘zbek va rus tillari

Anjuman materiallari, ishtirokchilarning sertifikatlari Toshkent farmatsevtika institutining rasmiy veb saytida quyidagi havola orqali joylashtiriladi: <http://conference.pharmi.uz/>

**Anjumanda ishtirok etish uchun materiallarni taqdim etish:** Anjumanda qatnashish uchun 2021 yil 10 oktyabrgacha [elektron ro'yhatdan o'tish shakli](https://forms.gle/yFDHgCrqMKP1GbAz5) (<https://forms.gle/yFDHgCrqMKP1GbAz5>) ni to'ldirishi va .docx formatidagi tezisini jo'natishi kerak. Ro'yxatdan o'tganlik va tezislarni qabul qilish natijalarini registratsiya vaqtidagi ko'rsatgan elektron pochtagizdan olishingiz mumkin.

**Izoh: pandemiya sharoitidan kelib chiqqan holda xalqaro ilmiy-amaliy anjuman onlayn tarzda o'tkazilishi mumkin. ANJUMAN TO'PLAMIDA TEZISLARNI CHOP ETISH BEPUL!**

### **TEZISLARGA TALABLAR:**

1. Tezis hajmi – 2 to'liq sahifa, A4 formatda, Times New Roman 14 o'lchamli shriftda, chap tomondan 3sm., o'ng tomondan 1,5sm., yuqori va pasti 2 sm, matnda qatorlararo 1,0 intervaldan foydalanilgan holda.
2. Tezis nomi bosh harflar bilan o'rtaga yoziladi. Navbatdagi qatorga muallif to'liq familiyasi va ism-sharifi bosh harfi yoziladi. Keyingi qatordan tashkilot, shahar, davlat nomi to'liq va manzili (telefon raqami, e-mail) ko'rsatilishi shart. Asosiy qismlari: dolzarbligi, tadqiqotning maqsadi, usul va uslublar, natijalar va xulosalar. Ma'ruza bilan qatnashuvchi ishtirokchi familiyasi ostida chiziq bilan belgilanadi va ishtirokchi qaydnomasi to'ldirilib yuboriladi.
3. Faylda faqat bir tezis bo'lishi kerak, fayl nomi birinchi muallifning nomi bilan nomlanadi (masalan Botirov I.M.docx).
4. Mualliflar tomonidan tezisdagi qisqartmalar matnlarda birinchi marotaba qo'llanilgan hollarda to'liq ko'rsatilishi kerak.
5. Tezislar o'zbek, rus yoki ingliz tilida bo'lishi mumkin.

### **TEZIS NAMUNASI**

## **DORIXONALARDA FARMATSEVTIK YORDAM KO'RSATISH ASOSLARI VA BUGUNGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI**

**Ziyamuxamedova R.M., Zaynutdinov X.S., Saidova M.YA.**

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi  
e-mail: [ranoo1988@mail.ru](mailto:ranoo1988@mail.ru), tel. +998932548752

**Dolzarbligi:**

**Tadqiqotning maqsadi:**

**Usul va uslublar:**

**Natijalar:**

**Xulosalar:**

**Tashkiliy qo'mita** materiallarni to'plamga kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Anjuman talablarini buzgan holda jo'natilgan tezislar tashkiliy qo'mita tomonidan ko'rib chiqilmaydi va qaytarilmaydi! Matn tasdiqlangan va xatosiz bo'lishi kerak. Ma'lumotlarning to'g'riligi va ishning ilmiy mazmuni uchun mualliflar javobgardir.

**BOG'LANISH UCHUN MA'LUMOT:**

**TASHKILIY QO'MITA:**

**Toshkent farmatsevtika institut:** Toshkent sh., Oybek - 45  
tel/faks: (+99871) – 256-39-54;  
Mullajonova Manzura Toxirovna, farm.f.n., dotsent (ilmiy bo'lim mudiri)  
tel.: (+99890) -374-04-01;  
e-mail: [conference@pharmi.uz](mailto:conference@pharmi.uz).

**ISHTIROKCHI QAYDNOMASI NAMUNASI\***

Ishtirokchining hammualliflari bo'lgan holda, qayd varaqasi faqat ma'ruzachi uchun to'ldiriladi. Ma'ruzachi ismi, sharifi, otasining ismi to'liq ko'rsatilishi shart.

<b>Ishtirokchining qayd varaqasi</b>	
<i>Ma'ruzachi ismi, sharifi, otasining ismi</i>	
<i>Ish joyi, kafedra, lavozim</i>	
<i>Ilmiy daraja, unvon (bo'lsa agar)</i>	
<i>Aloqa uchun telefon raqami</i>	
<i>e-mail</i>	
<i>Sertifikat oluvchilarning FISH (to'liq) ingliz tilida</i>	
<i>Tezis nomi</i>	
<i>Qatnashish shakli («+» qo'ying)</i>	Tezis chop etish
	Anjumanda ma'ruza bilan
<b><i>Ma'ruza bilan ishtirok etilsa to'ldiriladi</i></b>	
<i>Ma'ruza nomi</i>	

**Sizni anjumanimiz ishtirokchilari qatorida ko'rishdan xursand bo'lamiz!**